



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2026



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2026

3-JILD 1-SON



YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

TO'PLAMI

3 - JILD, 1 - SON

2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026



**OILA TARBIYASINING NAZARIY ASOSLARI, ZAMONAVIY
TADQIQOTLAR VA IJTIMOIIY AHAMIYATI****Muxtorova Fotimaxon Dilshodbek qizi**

ADPI, Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy raxbar: **Turdiyeva Shoxida Anvarjonovna**

ADPI, psixologiya va pedagogika kafedrası

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila tarbiyasining pedagogik, psixologik va sotsiologik mohiyati kompleks yondashuvi asosida tahlil qilinadi. Oila tarbiyasining shaxs kamolotidagi oʻrni, ota-onalik uslublarning farzand rivojlanishiga taʼsiri, emotsional bogʻlanish (attachment) nazariyasi va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari yoritiladi. Maqolada oilaviy tarbiyaning jamiyat barqarorligi va inson kapitalini rivojlantirishdagi strategik ahamiyati asoslanadi.

Kalit soʻzlar: Oila tarbiyasi, Ota-onalik (tarbiya) uslublari, avtoritar tarbiya, avtoritativ tarbiya, liberal tarbiya, emotsional (hissiy) bogʻlanish, ijtimoiylashuv, shaxs rivojlanishi

Kirish: Oila jamiyatning eng qadimgi va barqaror ijtimoiy maktabi boʻlib, unda shaxsning axloqiy qarashlari, ijtimoiy xulq-atvori va madaniy qadriyatlari shakllanadi. Sotsiologik tadqiqotlar shu koʻrsatadiki, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik darajasi bevosita oilaviy munosabatlar bilan chambarchas bogʻliq boʻlib kelgan. Pedagogika fanida oila tarbiyasi bolaning shaxs sifatida shakllanishidagi doimiy va birlamchi jarayon sifatida qaraladi. Bolaning maktabgacha boʻlgan davrda olgan tarbiyaviy taʼsirlari uning keying taʼlim faoliyatida koʻrinadi va ijtimoiy moslashuviga kuchli tasir koʻrsatadi. Shu sababli oila tarbiyasi masalasi zamonaviy ilmiy izlanishlarda alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Oila tarbiyasi ota-onalar tomonidan farzandga koʻrsatiladigan ongli, maqsadli va tizimli taʼsirlar majmui sifatida talqin qilinadi. Yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim oʻrin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy taʼsirchan kuch — oilada ruhiy xotirjamlik, samimiy munosabat va bola shaxsini mehnatga tarbiyalashga alohida eʼtibor berish, eng asosiysi bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi oʻzgarishlarni kuzatib borish, undagi mustaqillikka intilish va tashabbuskorlik sifatlarini qoʻllabquvvatlash va boshqalar kiradi. Oila qanchalik tartibli boʻlsa, ota-ona va farzandlar oʻrtasidagi munosabat ham samimiy boʻladi va bolalar tarbiyasi ham shunchalik muvaffaqiyatli boʻladi. Oila tarbiyasida ota-ona hurmati, ularning kuzatuvchanligi, sezgirligi, hozirjavobligi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Oila tarbiyasida tarbiya jarayoni zerikarli, quruq nasihatgoʻylikdan iborat boʻlib qolmasligi lozim. Bolaning boshlangʻich davri oilada oʻtadi. Shu boisdan mavjud anʼanalar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy taʼsirida bola asta-sekin kamol topib boradi. Anʼana va marosim oila tarbiyasining qudratli quroli hisoblanib kelgan. Oila tarbiyasi ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada boʻlsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Farzand yutuqlarga erishish uchun ota-onalarning

pedagogik bilimlarga ega bo'lishi, tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishi va kichik yutuqlari uchun rag'batlantirib, qo'llab-quvvatlash lozim. Har bir ota-ona Oila tarbiyasida o'zlarining burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari kerak. Normal oilaviy muhit, bolani kitob o'qishga, mehnat qilishga o'z vaqtida jalb etish ham oilaning yutug' hisoblanadi.

Oilada ota yoki onaning yo'qligi yoki ulardan birining ketib qolishi Oila tarbiyasiga katta zarar yetkazadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta'sir kuchi yo'qoladi, Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bola qalbi qattiq jarohatlanadi, u tajang, serjahl, qo'pol, dag'al bo'lib qoladi, kattalarga ishonmay qo'yadi, o'qishi pasayib ketadi. Oila tarbiyasida otaning obro'si katta ahamiyatga ega. Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan bog'lamasdan muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun Oila tarbiyasida maktab va ota-onalar o'rtasidagi ta'lim tarbiyaga oid birgalikdagi ishlari katta ahamiyatga ega. Ota-onalarning o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvlarida aytilgan fikrlar, ayniqsa qimmatlidir. Chunki ular o'z farzandlari to'g'risida ko'proq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan har bir ota-ona oila bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi. Bola maktabni tamomlagunga qadar ota-ona maktab bilan yaqin aloqa o'rnatishi, farzandining darslarini o'zlashtirishi, xulq-atvoridan xabardor bo'lib turishi, tarbiya masalalarida o'qituvchi, sinf rahbari bilan maslahatlashib turishi, bolaning darsdan so'ng nima bilan mashg'ulligi haqida o'qituvchi va sinf rahbarini xabardor qilib turishi lozim.

O'z navbatida o'qituvchi va sinf rahbari ham bolaning o'qishi, odobi, xulqi, maktabda o'zini tuta bilishi haqidagi ma'lumotlarni ota-onaga yetkazishi, zarurat tug'ilganda paydo bo'lgan muammolarni birgalikda hal qilishi zarur. Farzandi maktabga borgan ota-ona maktab jamoasining a'zosi bo'lib qolishi kerak. O'qituvchi va sinf rahbari ham o'z o'quvchisining oilasi bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'ymog'i lozim. Oila tarbiyasida ota-onalarning mahalla faollari, mehnat faxriylari bilan hamkorliklari ham muhim. Oila tarbiyasi farzandlarning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Oila tarbiyasida har bir oila o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi.

Paixologiya va pedagogika fanida ota-onalarning bolaga munosabati va tarbiyaviy yondashuvlari tarbiya uslublari sifatida tafsiflanadi. Eng keng tarqalgan ilmiy tasnifiy amerikalik psixolog Diana Baumrind tomonidan ishlab chiqilgan.

Avtoritar (qat'iy-buyruqboz) tarbiya uslubida ota-onalar bolaga nisbatan yuqori talabchanlik va past darajadagi mehr-muhabbat bilan yondashadilar. Bunda ota-onaning so'zi so'zsiz bajarilishilozim bo'lgan qonun sifatida qaraladi. Xususiyatlari qattiq intizom va jazogga asoslangan boshqaruv, bolaning fikri va his-tuyg'ulariga kam e'tibor, buyruq, nazorat va majburiyat ustuvorligi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki bunday muhitda ulg'aygan bolalardatahabbussizlik, o'ziga ishonchsizlik va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarga ko'p uchraydi

Avtoritativ (demokratik) tarbiya uslubi eng samarali va sog'lom tarbiya shakli sifatida e'tirof etiladi. Unda talabchanlik va mehr-muhabbat o'zaro muvozanatda bo'ladi. Xususiyatlari: aniq qoidalar va izchil talablar, bolaning fikrini tinglash va hurmat qilish, rag'batlantirish va tushuntirishga asoslangan yondashuv. Tadqiqotlarga ko'ra, bu usulda tarbiyalangan bolalar mustaqil, ma'suliyatli va ijtimoiy jihatdan faol bo'lib yetishadi.

Liberal (ruxsat beruvchi) tarbiya uslubida ota-onalar bolaga juda yumshoq munosabatda bo'lib, deyarli cheklovlar qo'yilmaydilar. Xususiyatlari: qoidalarining kamligi yoki yo'qligi, bolaning istaklari ustuvorligi, jazodan deyarli foydalanmaganligi. Ilmiymanbalarda qayd etilishicha, bu uslubda bolalarda intizomsizlik, mas'uliyatsizlik va impulsive xatti-harakatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin deb hisoblaydilar.

Beparvo (e'tiborsizlik) tarbiya uslubi ota-onaning bolaga nisbatan past darajadagi talab va past emotsional aloqasi bilan xarakterlanadi. Xususiyatlari; nazoratning yo'qligi, emotsional sovuqlik, tarbyaviy jarayonga befarqlik. Psixologik tadqiqotlar bu uslub bolalarda ijtimoiy muammolar, tajovuskorlik va o'qishdagi muvaffaqiyatsizlikka sabab bo'lishini ko'rsatadi.

Emotsional bog'lanish – bu bola va unga g'amxo'rlik qiluvchi shaxs o'rtasida shakllanadigan chuqur psixologik va emotsional aloqadir. Ush bu tushuncha XX asrning o'rtalarida ingliz psixoanalitigi Jon Bowlby tomonidan ilmiy muomilaga kiritilgan bo'lib, bugungi kunda rivojlanish psixologiyasining markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Bowlby nazariyasiga ko'ra, bola biologik jihatdan kattalarga bog'lanishga moyil bo'lib tug'uladi. Bu bog'lanish: bolaning xavsizlik hissin ta'minlaydi, stress va qo'rquvni kamaytiradi, ijtimoiy munosabatlar uchun asos yaratadi. Keyinchalik Mary Ainsworth tomonidan ishlab chiqilgan "Begona vaziyat" (Strange Situation) tajribasi bog'lanish turlarini empirik asosda aniqlash imkonini beradi. Bolaning butun hayoti davomida uning ruhiy barqarorligi va ijtimoiy muvaffaqiyatiga ta'sir qiluvchi fundamental omildir. Xavsiz bog'lanish shakllangan oilalarda sog'lom, ma'suliyatli va emotsional yetuk shaxs kamol topadi.

XXI asrda globallashuv, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi oila tarbiyasining mazmuni va shakllariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda oila endi faqat an'anaviy tarbiya instituti sifatida emas, balki psixologik xavsizlik, emotsional qo'lab quvvatlash va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi muhit sifatida talqin etilmoqda.

So'ngi tadqiqotlarda bolaning shaxs sifatida kamol topishida quyidagi omillar asosiy deb qaraladi

- Ota-ona va bola o'rtasidagi emotsional (attechmend) bog'liqlik
- Oila ichidagimuloqot sifati
- Tarbiyadagi barqarorlik va izchillik

J. Bowlby va uning izdoshlari olib brogan tadqiqotlar zamonaviy psixologiyada ota-onaning mehrga asoslangan munosabati bolaning ruhiy barqarorligi va stressga chidamliligini oshirishini isbotlagan.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar oila tarbiyasining muhim omiliga aylangan. Internet va smartfonlardan foydalanish tarbiyaviy imkoniyatlarni kengaytirsada shu bilan birga, nazorat yetishmasa, salbiy oqibatlariga olib keladi. Livingstone izlanishlarida “ota-onaning raqamli savodxonligi yuqori bo’lsa, bolalarda internet xavsizligi va ma’suliyatli foydalanish ko‘nikmalari shakllanadi” deb ko‘rsatiladi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda oila bolada faqat bilim emas, balki ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish muhiti hisoblanadi. Ayniqsa tarbiya jarayonida milliy va madaniy qadriyatlarni saqlagan holda global talablarga moslashish zarurligi ta’kidlanadi.

Xulosa. Oilaviy tarbiya shxs shakllanishining eng muhim ijtimoiy moslashuv darajasini belgilaydi. Oilaviy muhitning sifati bolaning akademik muvaffaqiyati, ijtimoiy xulqi va kelajakdagi hayotiy strategiyalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy jamiyatda globallashuv, raqamli texnologiyalarning kuchayish oilaviy tarbiyaga yangi talablar qo‘ymoqda. Shu sababli ota-onalarning pedagogic savodxonligini oshirish, ilmiy asoslangan tarbiya uslublarini joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Oila tarbiyasi bugungi kunda ko‘p omilli, murakkab va dinamik jarayondir. Demokratik yondashuv, emotsional yaqinlik, raqamli savodxonlik va milliy qadriyatlarga tayangan tarbiya sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashning ilmiy asoslangan modeli sifatida e’tirof etilmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baumrind, d. Child Care Practices Antecedent Three Patterns of Preschool Behavior. - Genetic Psychology Monographs, 1967, 75-bet
2. ¹ Maccoby, E.E, Martin, J. A. Socialization in the Context of the family. Handbook of Child Psychology, 1983, 39-42 bet
3. Darling, N, Steinberg, L. Parenting Style as Context. Psychological Bulletin, 1993, 493-495-betlar
4. Bowlby, J. Attachment and Loss. New York: Basic Books, 1988, 21-25-betlar
5. Ainsworth, M. et al. Patterns of Attachment. Hillsdale: Erlbaum 1978, 40-45-betlar
6. Bowlby, J. Attachment and Loss. New York: Basic Books, 1988, 120-125-betlar